

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA IQTISODGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Urunov Abduxalil Madjidovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologiya darslari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iqtisodga oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada iqtisodiy ta‘lim va iqtisodiy tarbiyaning mazmuni, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, resurslardan oqilona foydalanish, moddiy boyliklarni asrash hamda ekologik madaniyat bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiyaga oid qarashlari, oila va maktab hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati, texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlar orqali iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-metodik nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida boshlang‘ich ta‘limda iqtisodiy tushunchalarni hayotiy misollar, hisob-kitob, loyiha, mehnat faoliyati va tejamkorlikka oid topshiriqlar bilan integratsiyalash samarali ekani ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: iqtisod, iqtisodiy ta‘lim, iqtisodiy tarbiya, texnologiya darsi, boshlang‘ich ta‘lim, iqtisodiy resurslar, tejamkorlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy tafakkur.

Аннотация. В статье раскрываются педагогические основы формирования первоначальных экономических понятий у учащихся начальных классов на уроках технологии. Рассматриваются содержание экономического образования и воспитания, развитие бережливости, трудолюбия, инициативности, рационального использования ресурсов, сохранения материальных ценностей и экологической культуры. Особое внимание уделяется взглядам восточных мыслителей на экономическое воспитание, воспитательному значению сотрудничества семьи и школы, а также возможностям развития экономического мышления через практические задания, расчёты и проектную деятельность на уроках технологии. Сделан вывод о том, что интеграция экономических понятий с жизненными примерами и трудовой деятельностью повышает эффективность начального образования.

Ключевые слова: экономика, экономическое образование, экономическое воспитание, урок технологии, начальное образование, экономические ресурсы, бережливость, инициативность, экономическое мышление.

Annotation. This article examines the pedagogical foundations for developing primary school pupils' initial economic concepts in technology lessons. It analyzes the content of economic education and upbringing, including thrift, diligence, initiative, rational use of resources, preservation of material values, and ecological culture. The article also discusses the views of Eastern thinkers on economic upbringing, the educational importance of family-school cooperation, and the possibilities of developing economic thinking through practical tasks, calculations, project work, and labor-related activities in technology classes. The findings suggest that integrating economic concepts with real-life examples, practical work, and thrift-oriented assignments improves the effectiveness of economic education in primary grades.

Keywords: economy, economic education, economic upbringing, technology lesson, primary education, economic resources, thrift, initiative, economic thinking.

Kirish. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchining hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish faqat o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalari bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda bola kundalik hayotda uchraydigan iqtisodiy holatlarni anglash, buyum va resurslarning qiymatini his qilish, mehnat mahsuliga hurmat bilan qarash, isrofgarchilikning oldini olish kabi amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi zarur. Shu jihatdan texnologiya fani iqtisodiy tarbiya uchun qulay didaktik maydon hisoblanadi, chunki bu darslarda o‘quvchi mahsulot

yaratish, material tanlash, vaqtni rejalashtirish, mehnat qurollaridan foydalanish va natijani baholash jarayonida bevosita iqtisodiy mazmundagi qarorlarni qabul qiladi.[1.36]

Iqtisodiy jarayonlarning tub mohiyatini anglash uchun unga doir tushunchalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy talablarini bilish muhimdir. Bunday bilimlar yoshlikdan shakllantirilsa, o'quvchida buyumga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat natijasini qadrlash, oilaviy va ijtimoiy resurslardan oqilona foydalanish kabi fazilatlar mustahkamlanadi.[2.18] Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida berilgan iqtisodiy tushunchalar keyingi ta'lim bosqichlarida iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy madaniyatning rivojlanishiga poydevor yaratadi.

Maqolaning maqsadi texnologiya darslarida o'quvchilarda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini tahlil qilish, oila va maktab hamkorligi imkoniyatlarini ko'rsatish hamda amaliy mashg'ulotlar orqali iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish yo'llarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda texnologiya darslari orqali iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish masalasi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

A.T.Jo'rayev va D.A.Abdullayeva texnologiya fanida amaliy faoliyat va kompetensiyaviy yondashuv muhimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv iqtisodiy tushunchalarni amaliy jarayonlar orqali o'rgatish imkonini beradi.

B. S. Raximov innovatsion metodlar, loyiha va muammoli ta'lim o'quvchilarning iqtisodiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishini asoslaydi.

M. K. Usmonova iqtisodiy tafakkurni tejamkorlik, mehnatsevarlik va mas'uliyat bilan bog'laydi, ularni hayotiy misollar orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Z. P. Xolmatova va L. N. Qodirova iqtisodiy tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rgatish hamda fanlararo integratsiya samaradorligini asoslaydi.

Shuningdek, Sh. M. Karimov va N. R. To'xtayeva iqtisodiy tarbiya va texnologiya darslarini tashkil etishda amaliy metodlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili texnologiya darslarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda amaliy faoliyat, integratsiya va kompetensiyaviy yondashuv asosiy o'rin tutishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida texnologiya darslari orqali iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish jarayoni pedagogik-nazariy va amaliy yondashuv asosida o'rganildi.

Nazariy asos sifatida pedagogika va iqtisodiy tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Amaliy qismda esa kuzatish, suhbat, so'rovnoma, taqqoslash va o'quvchilarning amaliy ishlarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning tejamkorlik, vaqtni rejalashtirish, materiallardan oqilona foydalanish va mehnatni tashkil etish ko'nikmalari kuzatildi.

Natijalar sifat tahlili asosida umumlashtirilib, texnologiya darslari iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

Tahlillar va natijalar.Iqtisodiy tarbiya shaxsni iqtisodiyot asoslari bilan tanishtirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va mas'uliyatli iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon o'quvchiga inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirishga intilish, resurslar cheklanganligini anglash va iqtisodiy qarorlarning oqibatini tushunish imkonini beradi.[2.41]

Iqtisodiyot atamasi qadimiy yunoncha manbalar bilan bog'liq bo'lib, dastlab uy xo'jaligini yuritish, mavjud imkoniyatlarni boshqarish ma'nosida qo'llangan. Bugungi talqinda esa iqtisodiyot ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini qamrab oladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Boshlang'ich ta'limda bu tushuncha murakkab nazariy kategoriya sifatida emas, balki bola hayotiga yaqin misollar — oila byudjeti, o'quv qurollarini tejash, kiyim-kechakni asrash, vaqtni rejalashtirish, suv va elektr energiyasidan oqilona foydalanish orqali tushuntiriladi.[4. 57]

Iqtisodiy ta'lim pedagog rahbarligida amalga oshiriladigan maqsadli jarayon bo'lib, unda o'quvchiga iqtisodiyotning sodda tamoyillari, qoidalari va kategoriyalari tushuntiriladi. Iqtisodiy tarbiya esa bu bilimlarning shaxsiy fazilatga aylanishiga xizmat qiladi. Demak, iqtisodiy ta'lim ko'proq bilish faoliyatiga, iqtisodiy tarbiya esa xulq-atvor va munosabatlar tizimiga yo'naltiriladi. Texnologiya darslarida har ikki jarayon bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.[3.44]

Inson hayoti oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ehtiyojlar bilan bog'liq. Ushbu ehtiyojlarni qondirish jarayonida resurslar cheklanganligi, tanlov qilish zarurati, mehnat va natija o'rtasidagi bog'liqlik kabi iqtisodiy qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Pul mablag'lari, tabiiy boyliklar, malakali ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari cheklangan miqdorda bo'lgani sababli ulardan oqilona foydalanish har bir jamiyatning muhim vazifasidir.[6. 29]

Boshlang'ich sinf o'quvchisi iqtisodiy tushunchalarni abstrakt ta'riflar orqali emas, balki amaliy faoliyatda tezroq o'zlashtiradi. Masalan, qog'ozdan buyum yasashda ortiqcha qirqimlarni kamaytirish, ish joyini tartibli saqlash, elim, bo'yoq, mato, karton va boshqa materiallarni rejali ishlatish orqali bola tejamkorlikning amaliy mazmunini anglaydi. Bunday faoliyatda o'quvchi materialning qiymati, vaqtning ahamiyati, mehnat natijasining foydaliligi va sifat mezonlari haqida dastlabki xulosalarga keladi.[5.73]

Maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Bozor munosabatlari sharoitida yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchida tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitobga e'tiborli bo'lish kabi sifatlarni shakllantirish uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.[7.52]

Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari qarashlarida ham muhim o‘rin tutadi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hisob ilmining inson hayotidagi amaliy ahamiyatiga e‘tibor qaratib, kishi o‘z ishiga pishiq bo‘lishi, mehnat natijasini o‘lchov va hisob-kitob orqali aniqlay olishi zarurligini ta‘kidlagan. Bu fikrlar boshlang‘ich ta‘limda hisoblash ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.[2.64]

Abu Nasr al-Farobiy inson yashashi uchun ko‘p narsalarga ehtiyoj sezishini, ularni yaratish va taqsimlashda boshqa kishilar bilan hamkorlik qilish zarurligini qayd etgan. Uning qarashlarida mablag‘ni oqilona sarflash, xasislik va isrofgarchilikdan saqlanish, reja asosida yashash kabi g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi. Bu g‘oyalar bugungi texnologiya darslarida o‘quvchini jamoaviy ishlash, mahsulot tayyorlash va mehnat natijasini baholashga o‘rgatish bilan uyg‘unlashadi.[4.83]

Ibn Sino esa bolalarni hayotga tayyorlashda hunar o‘rgatishning ahamiyatini alohida ko‘rsatgan. Uning fikricha, hunar insonning kelajakda ro‘zg‘or tebratishi, mustaqil hayot kechirishi va o‘z mehnatining natijasini ko‘ra bilishi uchun zarur. Texnologiya darslari aynan shu jihati bilan o‘quvchiga mehnat, hunar, sifat, tejash, hisob-kitob va mas‘uliyat tushunchalarini birgalikda singdirish imkonini beradi.[3.97]

Bola iqtisodiy tarbiyaning dastlabki namunalarini oilada ko‘radi. Ota-onaning oziq-ovqatni isrof qilmaslik, non va suvni qadrlash, kiyim-kechak va poyabzalni asrash, uy jihozlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ortiqcha xarajatdan saqlanish haqidagi kundalik ko‘rsatmalari o‘quvchi ongida barqaror ko‘nikmaga aylanadi. Bu o‘g‘itlar xasislik belgisi emas, balki turmush tajribasiga asoslangan tejamkorlik madaniyatidir.[6.66]

Tejamkorlik shaxsiy va ijtimoiy mulkka ongli munosabatni bildiradi. Ishlab chiqarish korxonasida, ro‘zg‘orda yoki tabiat bag‘rida tejalgan har bir ne‘mat ijtimoiy ahamiyatga ega. Agar oila rizq-ro‘zini oqilona iste‘mol qilsa, jamiyat boyligini asrashga ham hissa qo‘shadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga non, suv, qog‘oz, elektr quvvati, gaz, yoqilg‘i, mato va boshqa ne‘matlarning qadri sodda va ta‘sirchan misollar orqali tushuntirilishi zarur.[8.39]

Tejamkorlik faqat moddiy resurslarni asrash bilan cheklanmaydi. Vaqt ham inson ixtiyoridagi bebaho boylikdir. Uni bilim olish, foydali mehnat qilish, o‘z qobiliyatini rivojlantirish, oilaga va jamiyatga xizmat qilish uchun sarflash o‘quvchida mas‘uliyat hissini kuchaytiradi. Texnologiya darsida topshiriqni belgilangan vaqt ichida sifatli bajarish, ish rejasiga amal qilish, guruh vazifalarini taqsimlash orqali vaqtni boshqarish ko‘nikmasi shakllanadi.[5.91]

Ota-onalar va o‘qituvchilar bir xil talab asosida harakat qilganida tarbiyaviy ta‘sir kuchayadi. Hovli va xonadonni tartibga solish, ovqat tayyorlashga ko‘maklashish, kiyim-kechakni yamash, ro‘zg‘or buyumlarini ehtiyot qilish, o‘quv qurollarini tartibli saqlash kabi vazifalar bolaning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos holda topshirilishi lozim. Bunda faqat buyruq berish emas, balki tushuntirish, ko‘rsatish, rag‘batlantirish va nazorat qilish muhimdir.[1.88]

Maktab sharoitida iqtisodiy tarbiyaning vazifalari turli fanlar mazmunida amalga oshiriladi. Matematika darslarida hisob-kitob, tabiiy fanlarda resurslar va atrof-muhit, ona tili va o‘qish savodxonligida mehnat va qadriyatlar, texnologiya darslarida esa buyum yaratish, materialdan foydalanish, sifatni baholash va mehnat madaniyati orqali iqtisodiy mazmun keng yoritiladi.[7.74]

Texnologiya darslarining afzalligi shundaki, o‘quvchi nazariy tushunchani bevosita amaliy harakatda sinab ko‘radi. Masalan, qog‘ozdan maket tayyorlashda material sarfini oldindan rejalashtirish, matodan buyum tikishda o‘lcham olish, naqsh yoki bezak yaratishda ortiqcha chiqindini kamaytirish, tayyor mahsulotni estetik va funksional jihatdan baholash o‘quvchida iqtisodiy fikrlashni rivojlantiradi.[3.112]

Darslarda suhbat, savol-javob, amaliy mashg‘ulot, loyiha, kuzatish, solishtirish, hisob-kitob qilish, guruhli ish, kichik tadqiqot va ishlab chiqarish obyektlariga sayohat kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘quvchi mahsulot yaratishda ishlatiladigan xomashyo, mablag‘, vaqt, kuch va mehnat natijasini baholashni o‘rgansa, iqtisodiy tushunchalar uning kundalik xatti-harakatiga singib boradi.[5.126]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya darslarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish uch asosiy yo‘nalishda olib borilganda samarali bo‘ladi: birinchidan, o‘quvchiga sodda iqtisodiy bilim berish; ikkinchidan, ushbu bilimni amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlash; uchinchidan, tejamkorlik, mehnatsevarlik va mas‘uliyatni shaxsiy fazilat sifatida rivojlantirish. Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan biri sust tashkil etilsa, iqtisodiy tarbiyaning natijadorligi pasayadi.[8.104]

Texnologiya darslarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish modeli

Yo‘nalish	Darsdagi faoliyat	Shakllanadigan iqtisodiy tushuncha	Kutiladigan natija
Materiallarni rejalashtirish	Qog‘oz, karton, mato, elim va bo‘yoq sarfini oldindan belgilash	Resurs, xarajat, tejash	O‘quvchi ortiqcha sarfni kamaytiradi va buyumni rejali tayyorlaydi
Hisob-kitob qilish	O‘lcham olish, buyum hajmi va kerakli material miqdorini aniqlash	Miqdor, o‘lchov, mehnat natijasi	Amaliy matematik va iqtisodiy fikrlash rivojlanadi
Mehnatni tashkil etish	Guruhda vazifalarni taqsimlash va ish vaqtini belgilash	Vaqt, mehnat taqsimoti, mas‘uliyat	Hamkorlik va javobgarlik ko‘nikmalari mustahkamlanadi
Mahsulotni baholash	Tayyor buyum sifatini, foydaliligini va estetik ko‘rinishini tahlil qilish	Sifat, qiymat, foyda	O‘quvchi mehnat natijasini baholashga o‘rganadi
Ekologik yondashuv	Qoldiq materiallardan qayta foydalanish, chiqindini kamaytirish	Iqtisodiy va ekologik madaniyat	Tabiatga ehtiyotkor munosabat shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, iqtisodiy tushunchalar texnologiya darsining alohida mavzusi sifatida emas, balki har bir amaliy faoliyat tarkibida berilishi lozim. Masalan, materialni

tejash resurslar cheklanganligini, sifatli mahsulot tayyorlash mehnat natijasining qiymatini, vaqtni rejalashtirish esa samaradorlik tushunchasini anglatadi. Bunday yondashuv o'quvchining iqtisodiy bilimini kundalik hayot bilan bog'laydi.[4.119]

O'quvchilarda iqtisodiy tarbiyaning shakllanganlik darajasini quyidagi belgilar orqali kuzatish mumkin: o'quv qurollarini asrash, ortiqcha qog'oz va material sarflamaslik, topshiriqni bajarishda reja tuzish, ish joyini tartibli saqlash, guruhda vazifani mas'uliyat bilan bajarish, tayyor mahsulotning sifatiga e'tibor berish, tabiat va jamiyat boyliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Bu belgilar o'qituvchi uchun kuzatuv mezon, o'quvchi uchun esa o'zini nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.[6.118] texnologiya darslarida har bir amaliy ish oldidan material, vaqt va mehnat sarfi bo'yicha qisqa reja tuzdirish; qog'oz, karton, mato va boshqa materiallardan oqilona foydalanish bo'yicha maxsus "tejamkorlik daqiqalari"ni tashkil etish; o'quvchilarga oiladagi kundalik iqtisodiy holatlar — suvni tejash, elektr energiyasidan oqilona foydalanish, buyumlarni asrash, ortiqcha xarajatning oldini olish bo'yicha kichik kuzatuv topshiriqlarini berish; tayyor mahsulotni baholashda faqat chiroyli ko'rinish emas, balki material sarfi, sifat, foydalilik va ekologik jihatlarni ham hisobga olish; oila, maktab va jamoatchilik hamkorligida iqtisodiy tarbiyaga oid ko'rgazma, loyiha va mahorat darslarini muntazam tashkil etish.

Xulosa. Texnologiya darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish uchun eng samarali amaliy fanlardan biridir. Chunki bu darslarda o'quvchi resurs, mehnat, vaqt, sifat, qiymat, foyda, tejamkorlik va mas'uliyat tushunchalarini bevosita faoliyat jarayonida o'zlashtiradi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchining faqat iqtisodiy bilimlarini emas, balki uning axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Tejamkorlik, halollik, pishqlik, sahiylik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va tashabbuskorlik iqtisodiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridir.

Oila va maktab hamkorligi iqtisodiy tarbiyaning natijadorligini oshiradi. Oilada kundalik hayotiy tajriba orqali berilgan ko'nikmalar maktabda ilmiy-metodik asosda mustahkamlanadi.

Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari, hisob-kitob, guruhli faoliyat, kuzatish va muammoli vaziyatlardan foydalanish yuqori samara beradi. Shu bois texnologiya darslari mazmunida iqtisodiy va ekologik tarbiyani integratsiyalash bugungi ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva D. A. Boshlang'ich ta'limda texnologiya fanini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 160 b.
2. Karimov Sh. M. Iqtisodiy tarbiya asoslari (boshlang'ich sinflar uchun). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 144 b.
3. To'xtayeva N. R. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 132 b.
4. Xolmatova Z. P. Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – 150 b.

5. Raximov B. S. Texnologiya darslarida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 176 b.
6. Usmonova M. K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2022. – 138 b.
7. Jo'rayev A. T. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va texnologiya fanlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. – 155 b.
8. Qodirova L. N. Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslar (texnologiya va iqtisodiy bilimlar). – Toshkent: Zamin nashr, 2023. – 148 b.

